



## NAVRO'Z – QADIM QADRIYATLAR TAROVATI

**Abdukarimova Roxila Abdurayimovna**

talaba

Far'gona davlat univversityeti, Farg'ona shahri

Abdukarimovrohila3@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7735542>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 08-mart 2023 yil

Ma'qullandi: 12-mart 2023 yil

Nashr qilindi: 15-mart 2023 yil

### KEY WORDS

*Navro'z nomoddiy-madaniy meros namunalaridan biri sifatida xalqaro YUNESKO tashkilotining ro'yxatidan joy olgan.*

### ABSTRACT

*Yangilanish, yasharish fasli boshlandi. Shukuhli bu kunlarda esa yurtimizda Navro'z umumxalq bayrami keng nishonlanadi. Navro'z saylidan qaytayotgan dehqonu bog'bonlar dala tomon oshiqar ekan, «Qadaming qutlug' kelsin, Navro'z», deya niyat qilishadi. Navro'z — bunyodkorlik, birdamlik va rizq-ro'z bayramidir.*

Yangilanish, yasharish fasli boshlandi. Shukuhli bu kunlarda esa yurtimizda Navro'z umumxalq bayrami keng nishonlanadi. Navro'z saylidan qaytayotgan dehqonu bog'bonlar dala tomon oshiqar ekan, «Qadaming qutlug' kelsin, Navro'z», deya niyat qilishadi. Navro'z — bunyodkorlik, birdamlik va rizq-ro'z bayramidir.

Navro'z nomoddiy-madaniy meros namunalaridan biri sifatida xalqaro YUNESKO tashkilotining ro'yxatidan joy olgan. Xalqimiz tarixi va madaniyatining bir bo'lagi bo'lgan Navro'z qadimiy bo'lishi bilan birga, har yili biz bilan birga yangilanib, anglanib borayotgan ulug' va navqiron bir bayramdir. Qolaversa, O'rta Osiyo va Sharq mamlakatlarida yashovchi xalqlarning eng qadimiy an'anaviy bayrami hamdir.

Tarixiy manbalarga ko'ra, Navro'zni nishonlash turkiy xalqlarda eng katta bayramlardan biri hisoblangan. Kuyoshning kamal burjiga kirishi, kecha bilan kunduzning barobar kelishi yil boshi xisoblangan. Bu eski kuyosh yili xisobida farvardin oyining avvaliga (22 mart) – kecha bilan kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanish, baxorning boshlanish davriga to'g'ri keladi. Buni kichik Navro'z bayrami yoki ommaviy Navro'z bayrami deyilgan. Farvardinning oltinchi kuni esa katta Navro'z bayrami yoki maxsus (xususiy) Navro'z bayrami deb atalgan. An'anaga ko'ra, kichik Navro'z bayramdan boshlab xamma narsa amalga kiradi, deb, xisoblashgan. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida Navro'zga bag'ishlangan ko'plab xalq qo'shiqlari keltirilgan. Navro'z bayrami haqidagi ma'lumotlar Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», Umar Hayyomning «Navro'znoma»si, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqa allomalarning asarlarida uchraydi. Umuman olganda, Sharq mamlakatlarida Navro'z bayramini yangi yilning boshlanishi sifatida yuqori kayfiyatda va o'zgacha shukuhda kutib olishgan.

Navro'z bayrami mamlakatimizda yashayotgan millati, tili, dinidan qat'i nazar, barcha vatandoshlarimiz orziqib kutadigan

umumxalq bayramiga aylangan. Bugun mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari ahil va inoq yashamoqda. Ular umumiy uyimiz – O‘zbekistonimiz ravnaqi yo‘lida barcha sohalarda fidokorona mehnat qilmoqda. Navro‘z nafaqat o‘zbek xalqining, balki shu zaminda hamjihatlikda istiqomat qilayotgan barcha millat vakillarining eng go‘zal bayramlaridan biriga aylangan.

Bobo dehqonlarimiz, mirishkor bog‘bonlarimiz orziqib kutgan damlar yetib keldi. Ular yerga baraka urug‘ini sochadi, mevali va manzarali daraxtlar o‘tqazadi. Dinimizda dehqonchilik, yerni obod qilish masalasiga alohida e‘tibor berilgan. Zero, yerga mehnat bilan qanchalik ishlov berilsa, dehqonchilik, ziroat ham shunga qarab barakali bo‘ladi. Ro‘zg‘orimiz butun, hayotimiz farovon bo‘lib boraveradi. Shahar va qishloqlarda yashovchi barcha insonlar bu muborak faslni g‘animat bilib, yurtimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi, turmushimiz ravnaqi yo‘lida astoydil bel bog‘lab, fidokorona mehnat qilish bilan o‘zlarining hissalarini qo‘shishga xarakat qiladilar.

Shuningdek, har yili bahor kelishi bilan atrof-muhit, o‘quv dargohlari hamda mahallalarni saranjom-sarishta qilish bo‘yicha ko‘plab ommaviy hasharlarni uyushtirish ham millatimizga xos odatlardandir. Bunda daraxtlar oqlanib, har xil chiqindilar tozalanadi, yangi-yangi mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari ekiladi. Atrofni o‘zgacha fayzu shukuh, poklik qamrab oladi, Zero, Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: "...Hovli va uy-joylaringizni ozoda tutinglar"; "Poklik imondandir" deya ummatlarini poklikka chorlaganlar.

«Navro‘z» bayramiga ham mana oz fursat qoldi. Yurtimizda bayram shodiyonasi. O‘lkamizning barcha chekkalarida Navro‘z bayrami keng nishonlanadi. Bayram arafasida biz milliy qadriyatlarimizdan biri bo‘lgan mazkur bayram va uning an‘analariga to‘xtalishga qaror qildik.

Uch ming yildan ziyod tarixga ega bo‘lgan Navro‘zi olam – sharqona yangi yil o‘zining yangilanish, bahor nafasini boshlab kelishi, xalqimizning tabiati, ongu tafakkuri, qalbiga chuqur singib ketgani, har qaysi oila, har qaysi xonadonga shodu xurramlik olib kirishi bilan biz uchun eng qadrli, aziz va suyukli milliy bayramdir. Navro‘z milliy ma‘naviyatimiz rivojidadagi eng muhim shodiyonadir. Bu kunda yurtimizning har bir go‘shasida bahoriy taomlaru, turli milliy o‘yinlarga alohida urg‘u beriladi. Xususan, milliy taomlarimizdan sumalak, halim, ko‘ksomsa, ko‘kchuchvara kabilar bayram dasturxonining ko‘rkiga aylanadi. Ayniqsa, sumalak bazmlarining o‘zgacha gashti bor.

Navro‘z bayramining uch asosiy taomlari:

Sumalak tayyorlash an‘anasining tarixi qadim – qadimlarga borib taqaladi. «Sumalak» atamasi – «sharbat uchun qilingan», «undirilgan arpa» ma‘nosini anglatuvchi qadimgi turkiy so‘z bo‘lmish “suma”dan kelib chiqqan.

Manbalarda qayd qilinishicha, qadimgi ajdodlarimiz erta ko‘klamda kelayotgan yilning barakali bo‘lishini niyat qilib, muqaddas o‘simliklardan birini tuyib, shirasini olganlar va marosim amallarini bajarish chog‘ida uni tanovul etganlar.

Sumalak tayyorlashda dastavval bug‘doy ma‘lum vaqt o‘stiriladi. Tayyor holga kelgan bug‘doyning shirasi olinib, doshqozonga ozroq yog‘dan so‘ng solinadi. Bug‘doy shirasidan so‘ng un solinadi. Shu tariqa sumalak 24 soat davomida pishiriladi.

Ko‘k somsani inson organizmiga eng kerakli quvvat beruvchi vitaminlar mavjud, deya bejizga aytilmagan. Ha, uni tayyorlashda bekalarimizdan anchayin mehnat talab etiladi. Avval xamir qorib olinadi. Undan so‘ng ichidagi qaylasini tayyorlashga kirishiladi. Ko‘katlar va piyozni

yaxshilab to'g'rab, o'simlik yog'i, tuz va murch qo'shib aralashtiriladi. Xamirni doimgidek yoyib, ichiga masalliqlar solinadi. har kim o'ziga qulay shaklda to'g'ishi mumkin. To'gilgan somsalarning ustiga tuxum surtib, sedana sepiladi va pishiriladi.

Halim (Halisa) bug'doy va mol go'shtidan tayyorlanadigan qadimiy milliy taomlarimizdan biri. Halim tayyorlash uchun qayroqi bug'doy bir oz namlanib, yog'ochda tuyilib, sovuq suvda yuviladi, so'ng 5-6 soat davomida iliq suvda ivitiladi.

O'simlik yog'i qizdirilgan qozonda lo'nda-lo'nda to'g'ralgan go'sht qovuriladi, so'ng tayyorlangan bug'doy solinib, darhol suv quyiladi va 2-3 soat davomida past olovda qaynatiladi. Taomni to'xtovsiz kovlab turish lozim. Ming dardga davo bo'lgan milliy taomlarimiz Navro'z dasturxoniga o'zgacha kayfiyat, shukuh bag'ishlaydi.

Navro'z bayrami o'yinlari. Ko'kda varrak uchirayotgan bolani ko'rib xavas qilasan kishi. Shu onda bolaning yuzidagi quvonchga beihtiyor sherik bo'lging keladi. Ha, bu ham bahor kelganidan darak. Navro'z bayramida ham juda ko'pgina milliy o'yinlarimiz bo'y ko'rsatadi. Bu shodiyona «Kurash» «Ko'pkari», «Arqon tortish», «Chillak», «Xo'roz urishtirish», «Oq terakmi, ko'k terak», «Beshtosh», «Tez aytish», «Kim oladi-yo, shuginani-yo?» kabi quvnoq o'yinlar bilan yanada gashtli va unutilmas o'tadi. Muhimi shundaki, bu o'yinlarning hech biri shunchaki ermak yoki vaqt o'tkazish uchun o'ylab topilmagan. Ular o'g'il-qizlarning jismonan va ruhan sog'lom, chidamli bo'lib o'sishlariga yordam beradi. Demak, xalqimizning oddiy o'yinlarida ham ajdodlar zakosi, ruhiy va jismoniy komillikka intilish niyati mujassam.

Tinch va osoyishta yurtimizning yanada taraqqiy etishi hamda ziroat ishlarida mo'l-ko'l hosil olish yo'lida mehnat qilayotgan dexqonlarimiz, barcha mirishkorlarimizga Yaratganning fayzu-barakatini ato etishini so'rab qolamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boltaboy Shodiyev. Navruz bayrami. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti 2001 yil.
2. Mamatqul Jo'rayev. Navro'z taronalari. Kamalak nashriyoti 2016 yil
3. www.meros.uz
4. www.naqshband.uz